

O'ZBEKISTON RIVOJLANISHINING YANGI BOSQICHIDA XAVFSIZLIK VA BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MARKAZIY OSIYODAGI O'RNI

Isoqov Rustamjon Saidaxmat o'g'li

O'zMU Tarix fakulteti "Davlat va fuqarolik jamiyati institutlari boshqaruvi" 1 kurs magistranti

Annotatsiya: O'zbekiston Markaziy Osiyoning markazida joylashganligi bilan asosiy strategic ahamiyatga egadir. Ushbu maqolada O'zbekiston rivojlanishining yangi bosqichida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda markaziy osiyodagi o'rnini haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, mustaqillik, Parlament, konstruktiv muloqot, xavfsizlik, barqarorlik, yaxshi qo'shnichilik, mintaq, tashqi siyosat.

O'zbekiston 1991-yil mustaqillikka erishgandan so'ng dunyo hamjamiyatining to'laqonli a'zosi sifatida o'zining mustaqil tashqi siyosatini amalga oshira boshladi. O'tgan 30 yil mobaynida o'zbek diplomatiyasi katta yo'lni bosib o'tdi. Bugungi kunda O'zbekiston dunyoning 134 mamlakati bilan diplomatik aloqalarni o'rnatgan va xorijiy mamlakatlarda 35 ta elchixona, 17 ta bosh konsulxona va xalqaro tashkilotlar huzurida 3 ta doimiy vakolatxona faoliyat olib bormoqda.

2017-yildan boshlab mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan dunyoga ochiqlik siyosati olib borilyabdi. birinchi navbatda yaqin qo'shnilarimiz, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik yangi bosqichga olib chiqildi. Bu haqida BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida ta'kidlab o'tildi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil noyabr oyida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlariga quyidagilarni tashkil qilishni taklif qildi:

doimiy maslahatlashuv uchrashuvlarini

Mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash

o'zaro ishonchni kuchaytirish,

mavjud muammolarni o'z vaqtida hal etish

Jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi 2018-yil 15-mart kuni Ostonada (hozirgi Nur-Sulton) bo'lib o'tdi. Sammitda siyosiy, savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni kengaytirish, terrorizm, ekstremizm, narkotrafik va qurol-yarog' kontrabandasiga qarshi birgalikda kurashish, xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi. Markaziy Osiyo nafaqat geografik va geosiyosiy, balki yagona madaniy va sivilizatsiya makonidir, deya e'tirof etildi.

2018-yil 22-iyun kuni BMT Bosh assambleyasi Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish" rezolyutsiyasini qabul qildi. Yevropa, Amerika, Osiyo va Afrikaning 55 mamlakati hujjatga hammualliflik qildi va rezolyutsiya BMTga a'zo barcha davlatlar tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi.

Rezolyutsiya Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqada tinchlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi, shuningdek mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashdagi muhim rolini e'tirof etadi.

Hujjatda Bosh assambleya Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqada barqarorlik va iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan sa'y-harakatlari va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashi ta'kidlangan.

Toshkent shahrida 2019-yil 29-noyabr kuni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Ikkinchi maslahat uchrashuvi bo'lib o'tdi. Markaziy Osiyo mamlakatlari Prezidentlari transchegaraviy suvlardan foydalanish, transport infratuzilmasini rivojlantirish, chegaralarni tartibga solish va mintaqaviy xavfsizlik masalalarini muhokama qildilar. Toshkentda bo'lib, unda O'zbekiston yangilanish va mintaqaviy hamkorlik yo'lidan borishni davom ettirayotganligini namoyish etdi. Keyingi uchrashuvini Qirg'iziston poytaxti Bishkek shahrida o'tkazish rejalashtirildi.

2017-yil 10-11-noyabr kunlari Samarqand shahrida BMT Bosh assambleyasining 72 sessiyasi minbaridan ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirishda muhim amaliy qadamlardan biri - “Markaziy Osiyo: bir o‘tmish va bir kelajak, barqaror rivojlanish va o‘zaro farovonlik uchun hamkorlik” mavzuidagi anjumandir. Unda Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi ishlar vazirlari boshchiligidagi delegatsiyalar, MDH, Yevropa, Osiyo va Amerikadan kelgan yuqori martabali rasmiy delegatsiyalar, 10 dan ortiq xalqaro tashkilotning rahbarlari, shuningdek 100 dan ortiq xorijiy ekspert va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi. Anjumanda O‘zbekiston Prezidenti Markaziy Osiyo chegara hududlari hokimlari va ishbilarmon doiralari uyushmalarini tuzish taklifini ilgari surdi. Ushbu tashabbus hozirda chegara hududlarida mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirishda o‘z ifodasini topmoqda.

2018-yil 27-mart kuni Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish uchun Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusida yuqori darajadagi Toshkent xalqaro anjumani bo‘lib o‘tdi. Unda Afg‘oniston Islom Respublikasi Prezidenti Muhammad Ashraf G‘ani, BMTning Afg‘onistondagi maxsus vakili Tadamiti Yamamoto, shuningdek Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Fransiya, Turkiya, AQSH, Rossiya, Hindiston, Eron, Pokiston, Xitoy, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari, Tojikiston, Turkmaniston tashqi ishlar vazirliklari rahbarlari, 25 ta davlat va xalqaro tashkilot vakillari ishtirok etdi.

O‘zbekiston Afg‘oniston bilan munosabatlarni rivojlantirishni davom ettiradi, ushbu mamlakatda vaziyatni tinch yo‘l bilan hal etishga qaratilgan xalqaro sa‘y-harakatlarda bundan buyon ham faol ishtirok etadi. O‘zbekiston tomoni Afg‘oniston iqtisodiyotini tiklash, uning transport, ishlab chiqarish, energetika va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaydi. Zero, barqaror va gullab-yashnayotgan Afg‘oniston Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik barqarorlikning muhim omillaridan biridir.

Prezidentimiz 2018-yilda Toshkent shahrida “Markaziy Osiyo xalqaro transport yo‘laklari tizimida: strategik istiqbollar va foydalanilmagan imkoniyatlar” mavzusida xalqaro anjuman o‘tkazish taklifini bildirdi. Unda dunyoning 37 mamlakatidan va 27 xalqaro tashkilotdan 500 nafardan ortiq xorijiy mutaxassis ishtirok etdi.

2017-yil noyabr oyida Samarqandda Markaziy Osiyo bo‘yicha O‘zbekiston Prezidentining ochiq va konstruktiv siyosati tufayli O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston o‘rtasidagi davlat chegaralarini bir-biriga tutash hududi masalasiga tegishli shartnoma imzolandi.

Mintaqaviy hamkorlikning yana bir strategik muhim yo‘nalishi – savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishdir. O‘zbekiston tashabbusi bilan 2018-yil 15-mart kuni poytaxtimizda mintaqa mamlakatlari Bosh vazirlari o‘rinbosarlari ishtirokida Markaziy Osiyo iqtisodiy forumi bo‘lib o‘tdi. Forumda 200 dan ortiq davlat idoralari, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston ishbilarmon doiralari vakillari ishtirok etdi. Forum ishtirokchilari investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish, mintaqaviy savdoni rag‘batlantirish, shuningdek sayyohlik jozibadorligini oshirish, transport va tranzit salohiyatini oshirish muammolarini muhokama qildilar. Uchrashuvlar davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2017-yilga nisbatan 35 foizdan ko‘proqqa o‘sgani va 12,2 milliard dollarni tashkil qilgani, ammo mamlakatlar mintaqadagi iqtisodiy salohiyatidan hali to‘liq foydalanilmayotganligi ta’kidlandi.

Investitsion muhitni yaxshilash va xorijiy investorlarni keng jalb qilish maqsadida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mintaqa davlat rahbarlarining Ikkinchi maslahat uchrashuvida Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun investitsiya forumini tashkil etish tashabbusini ilgari surdi.

O‘zbekiston Prezidentining BMT Bosh assambleyasining 72 sessiyasida ilgari surilgan tashabbusining amaliy tadbiqi sifatida Orolbo‘yi mintaqasida inson xavfsizligi bo‘yicha BMTning ko‘p tomonlama sheriklik Trast jamg‘armasi tashkil etildi. Mazkur jamg‘armaning taqdimoti 2018-yil 27-noyabr kuni Nyu-York shahrida BMT bosh qarorgohida bo‘lib o‘tdi.

Davlat rahbari 2018-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlis deputatlari oldida so‘zlagan nutqida fond faoliyatining naqadar muhim ekanini yana bir bor ta’kidladi. 2019-yil oktyabr oyida Orol muammolarini hal etishga bag‘ishlab Nukus shahrida o‘tkazilgan xalqaro anjumanda Prezidentimiz tomonidan Orolbo‘yini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi deb e’lon qilish va BMT Bosh assambleyasining maxsus resolyutsiyasini qabul qilish tashabbusi ilgari surildi. Hozirda ushbu tashabbusni amalga oshirish borasida izchil ishlar olib borilmoqda.

Madaniy va gumanitar hamkorlik Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Mintaqa mamlakatlari umumiy tarix va yakdil madaniyatga ega. Ularning bir-biriga

ulashib ketgan o'xshash urf-odatlarini, qadriyatlarini va yagona dini bor. Shu bois, O'zbekiston madaniy va yaqin qo'shnichilik aloqalarini mustahkamlash bo'yicha qator tashabbuslarni ilgari surmoqda. Jumladan, mintaqa davlat rahbarlarining Ikkinchi maslahat uchrashuvida Shavkat Mirziyoyev universitet forumlari va mintaqaviy sport o'yinlarini o'tkazish, shuningdek, fan, madaniyat va san'at sohasidagi ulkan yutuqlari uchun Markaziy Osiyo mukofotini ta'sis etishni taklif qildi. "Biz har yili Navro'z arafasida har bir mamlakatda navbatma-navbat Markaziy Osiyo madaniyati kunlarini tashkil etishni muhim, deb hisoblaymiz. Bularning barchasi qardosh xalqlarimizni yanada yaqinlashtirishga imkon beradi", deb ta'kidladi Prezidentimiz.

Ushbu tashabbusning amaliy tadbiri sifatida 2018-yil Qozog'istonda O'zbekiston yili, deb e'lon qilindi. Uning doirasida 80 dan ortiq madaniy va sport tadbiri, kino kunlari va turli festivallar o'tkazildi. 2019-yil esa O'zbekistonda Qozog'iston yili bo'ldi va uning doirasida ko'plab madaniy tadbirlar tashkil etildi. Bu mamlakatlar o'rtasidagi madaniy muloqotning yuqori darajasini ko'rsatadi.

Mintaqa davlat rahbarlarining Ikkinchi maslahat uchrashuvi muzokaralari davomida O'zbekiston rahbari xalqaro sayyohlik konferensiyasini o'tkazish va Markaziy Osiyoda yagona sayyohlik brendini yaratish tashabbusini ham ilgari surdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida Silk Road (Ipak yo'li) viza tartibini joriy etish mintaqaning sayyohlik salohiyatini oshirish rejalashtirilgan. Ushbu rejim umumiy vizani nazarda tutadi va chet el fuqarolariga bir vaqtning o'zida Markaziy Osiyoning bir nechta mamlakatlariga to'siqlarsiz borishga imkon beradi. Ushbu tashabbus sayyohlarning Markaziy Osiyo mamlakatlariga sayohat qilishini yengillashtirish uchun ilgari surilgan. Loyihada Markaziy Osiyo mamlakatlaridan tashqari Ozarboyjon va Turkiya ham qatnashishi rejalashtirilgan.

2019-yil dekabr oyida BMT Bosh assambleyasi O'zbekiston tashabbusi bilan "Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish va barqaror turizm" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qildi. Prezidentimizning bu boradagi tashabbuslari nafaqat mintaqada, balki xalqaro miqyosda keng qo'llab-quvvatlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi o'z tashabbuslari bilan nafaqat mamlakatni, balki butun mintaqani rivojlantirish borasida izchil sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Bizning bosh maqsadimiz – umumiy sa'y-harakatlarimiz bilan Markaziy Osiyoni barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan mintaqaga aylantirishdan iborat".

O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida keyingi uch yil mobaynida mamlakatimiz rahbariyati tomonidan olib borilayotgan yaqin va o'zaro manfaatli qo'shnichilik aloqalarini rivojlanish borasidagi izchil tashqi siyosatning hosilasi hamda mustaqil o'zbek diplomatiyasining katta yutug'i, deb aytilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi qonuni. // Xo'jalik va huquq, 2000.
2. Vahobov A., Burxonov U., Jumaev N. Chet mamlakatlar moliyasi. -T.: Yangi asr avlodi. 2003.
3. Козырев В.М. "Основы современной экономики" 2-е издание. Учебник для вузов. Москва: "Финансы и статистика", 2001.
4. Мамедов О.Ю. Смешанная экономика. - Ростов н/Д: Изд. Феникс, 2001.
5. Самуэлсон П., Нордхаус В. Экономика.: Учебник / 18-е изд.: Пер с англ. –М.: ООО "Вильямс", 2009.
6. <https://www.uwed.uz/>